TESHABOYEVA ZIYODAXON

"BOBURNOMA"DAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZBEKCHA-RUSCHA-INGLIZCHA LUG'ATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALSHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

ZIYODAXON TESHABOYEVA

"BOBURNOMA"DAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZBEKCHA-RUSCHA-INGLIZCHA LUG'ATI

TOSHKENT-2023

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVOI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ZIYODAKHON TESHABOYEVA

UZBEK-RUSSIAN-ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS DICTIONARY OF "BABURNAMA"

(On the basis of John Leyden-William Erskine (1826), Annete Susannah Beveridge (1921) and Wheeler Thackston's (1996) translations)

Tashkent – 2023

UO'K: 811.512.133(075.8)
KBK: 81.2O'zb-923
T 60

Z.Q.Teshaboyeva. "BOBURNOMA"DAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZBEKCHA-RUSCHA-INGLIZCHA LUG'ATI. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023 – 264 b.

Mazkur lug'at mumtoz asar "Boburnoma"dagi frazeologik birliklarning kognitiv-kontseptual o'rganish, "Boburnoma" (2002), "Boburnoma"ning tabdili (2008), ruscha tarjimasi (2008), J.Leyden-V. Erskin (1826), A.S.Beverij (1921) va V.Tekston (1996)ning inglizcha tarjimasiga bag'ishlangan. Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga mashhur asari "Boburnoma"da qo'llangan frazeologik birliklar bir necha yillar davomida o'rganilgan va o'zbekcha, inglizcha ruscha tarjimalari qiyoslanib tadqiq etilgan. Bir necha yillar samarali mehnatning natijasi o'laroq ko'p tillik mavzuli lug'at yaratilishiga turtki bo'ldi. Ushbu kitob bo'lajak tarjimonlar, boburshunos olimlar va jurnalistlar, doktorantlar, magistrantlar, oliy o'quv yurti ingliz tili o'qituvchilari, oliy o'quv yurti talabalari, ingliz tilini chuqur o'rganuvchilar va keng ommaga mo'ljallangan.

This dictionary is dedicated to the classical work "Baburname" on the cognitive-conceptual analysis of phraseological units in "Baburname" (2002) and its' interpretation of modern Uzbek (2008), Russian translation (2008), different English translations made by J.Leyden-W.Erskin (1826), A.S.Beveridge (1921) and Wh.Thackston (1996). Phraseological units in the work which was well known for all over the world, written by Zahoriddin Muhammad Babur that have studied by the author for several years and their different English, Russian translations. This dictionary is intended for future interpretors, Babur scholars and journalists, doctoral students, graduate students, English language teachers of the universities and wide of English speaker and learners.

Этот словарь основан на когнитивно-концептуальном подходе фразеологических единиц в произведении «Бабурнаме» (2002) и его интерпретации на современный узбекский язык (2008); русский перевод (2008); и на основании английских переводов сделанных учеными: Дж.Лейден-У.Эрскин (1826), А.С.Беверидж (1921) и В.Текстон (1996). Этот словарь предназначен для будущих переводчиков, бабураведов и журналистов, докторантов и выпускников ВУЗов, для учителей английского языка и студентов, а также для широкого круга читателей изучающих английский язык.

ISBN 978-9910-735-70-7

Kirish

Mumtoz asarlar ustida tadqiqot olib borish katta mas'uliyat his etadigan jarayon. Muallif o'z maqsadini yaratgan manbasi orqali yoritishga harakat qiladiki, manbadan keltirilajak misollar o'quvchini turlicha talqin etishga chorlaydi. O'y qarashlar turlicha bo'lganligi tufayli uni muallif andozasi orqali talqin qilinmaydi va u o'ylagandek tushunilmaydi. Asar qanday bo'lsa shundayligicha talqin etiladi. "Boburnoma" shunday asarki, uni har bir o'quvchi turlicha talqin etishi mumkin. Hatto ingliz tarjimonlari ham tarjima jarayonida asliyatni turlicha talqin etib, asliyat ma'nosini noto'g'ri o'girishgani kabi. Shu nuqtai-nazardan asliyatdagi frazeologik birliklar va milliy-madaniy so'zlar ma'nosini tizimli o'rganish birmuncha ishni osonlashtiradi va "Boburnoma"ning asliy matnini tushunishga ancha yordam beradi. Ushbu tayyorlangan manba "Boburnoma"dagi frazeologik birliklarni o'rganishga kognitiv-kontseptual nuqtai nazardan yondashib, ularni tizimli tahlil doirasiga tortmoq, bo'lajak tarjimonlarga ancha foydali bo'lishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda tarjimashunoslik sohasi alohida yo'nalish sifatida shakllanar ekan, o'zbek xalqining nodir asarlarini jahon ommasiga tanitish, ona tilidan to'g'ridan-to'g'ri, bevosita chet tillardan biri bo'lgan ingliz tiliga tarjimaga qilishga erishish fandagi yutuqlarimizdan biri deb qaraymiz. Shuning barobarida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari va uning hozirgi o'zbek tiliga qilingan tabdili (2008),

ruscha tarjimasi (2008) va uch turdagi J.Leyden-V.Erskin (1826), A.S.Beverij (1921), V.Tekston (1996)ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar mazmuni va tarjimalari uzoq yillardan buyon o'rganilgan va tarjimalari qiyoslab o'rganilishi keyingi paytdagi tarjimshunoslik sohasiga qo'shadigan yaxshi hissadir.

"Boburnoma" leksikasi haqida gapirilganda uning zalvorli matni barchaga birdek tushunarli emas, shuning uchun tabdil unga yaqinlashtiruvchi birinchi omil va uning ruscha tarjimasi esa bir qadam oldinga siljish, uch xil inglizcha tarjimalari – xorijiy tilda asliyatning aks etishi, asliyat mazmuning jilolanishi, ya'ni boshqa bir asarning yaratilishiga olib kelishidir.

Asliyatdagi frazeologik birliklarning kontseptlarda, matn ichida o'rganilishi tarjimonni chuqur fikrlashga, uning ekvivalentlari va bir necha sinonim guruhlari borligini bilishga yordam beradi. Ushbu kitob 2016 yilda nashr ettirilgan "Boburnoma"dagi frazeologik birliklar va paremiyalarning inglizcha tarjimalari lug'ati" deb nomlangan kitobning qayta ishlangan va mantiqan davomi sifatida, himoya jarayonidagi olimlarning taklif va tavsiya, maslahatlariga ko'ra ishlab chiqilgan. Asliyatdagi bir so'zning leksik maydon hosil qilishi yoki unga tegishli bo'lgan, asos so'zdan o'sib chiqqan frazeologik birlik mazmuni kognitiv-kontseptual jihati yoritilib, mavzuli lug'at shaklida vujudga keldi. Zero, "Boburnoma" faktik ma'lumotlarga shu qadar boyki, uning leksikasini to'liq tushunish bugungi kun o'quvchisiga biroz mushkullik tug'dirishi mumkin. Shunday nuqtai-nazar bilan mumtoz adabiyotimizning ushbu rakurslarda tadqiq etish ham foydali bo'ladi degan umidda va tarjimonlarning fikrini boyitish, tarjimalarini tadqiq etish ham dolzarb deb o'ylaymiz.

Asliyatdan saralangan so'zlar o'zbek tilida hammasi ham frazeologik birlik bo'lmasligi mumkin lekin uch turdagi inglizcha matndan birid frazeologik birlik aks etadi. Bundan maqsad frazeologik birliklar dinamikasini kuzatish maqsad qilingan.

Kognitiv-kontseptual ma'no qanday talqin etiladi? Bu haqida to'liq ma'lumot keltirish uchun bir maqolacha ko'rinishda tushuntirish bergan ma'qul. Asarda qo'llangan so'z, dunyo, ilik, o'lmoq leksik semantik maydonidagi ko'plab frazeologik birliklar, ularni tavsiflash, guruhlash va kontseptlarini ochib berishni talab etadi.

Shuningdek, "Boburnoma"dagi so'z kontseptining mazmuni o'rganilganda ular quyidagi tasvirda o'z ifodasini topgan:



1- Rasm.

Yuqoridagi tasvirda aks etgan misollarning barchasi "Boburnoma"da qo'llangan frazeologik birliklar bo'lib, quyidagi misolda uning mazmunini ko'ramiz.

Sening haqqingda yomon bordimmukim, to'shung bila belingga ikki qilich bog'lab, cherik tortib, bizning viloyatlarning ustiga kelib mundoq sho'r va fitna solursen Qari mabhut mardak bir-ikki ***so'z og'zida-o'q puypadi*** *so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi* [188].

Keltirilgan parchadagi ajratib yozilgan **so'z og'zida-o'q puypadi** frazeologik birlikdir. Bugungi kunda "Boburnoma"ning matnini barcha

birdek to'liq tushuna olmasligi mumkin. Shu maqsadda yuqoridagi misolning tabdilini keltirish maqsadga muvofiq.

Tabdil: *Men senga qanday yomonliklar qildimki, ko'ksing va belingga ikkita qilich bog'lab, lashkar tortib, bizning viloyatlarimiz ustiga bostirib kelib, bunday g'avg'o va fitna ko'tarasan. Hayratdan tili so'zga kelmay qolgan bu pastkash qariya bir ikki to'ng'illab,* ***hech so'z aytolmadi,*** *ishonch bilan aytilgan bunday haq so'zlarga u nima ham deya olardi* [194].

Tabdildan ko'rinadiki, asliyatdagi frazeologik birlik **so'z og'zida puypamoq – hech so'z aytolmadi,** oddiy so'z birikmasida aks etgan. Asliyatdagi frazeologik birliklar uning inglizcha va ruscha tarjimalarida ham aks etganini o'rgandik. Lekin aksariyat hollarda rus va ingliz tilidagi tarjimalarda ham frazeologik birlik ko'proq so'z birikmasi tarzida tarjima qilinganini guvohi bo'lamiz.

"Boburnoma"ning ruscha tarjimasini olaylik: *Разве я поступил с тобой дурно, что ты повесил на грудь и на пояс два меча, повел войска на наши земли и поднял там смуту и мятеж? Этот ошалевший старик невнятно* ***пробормотал несколько слов****, но не мог ничего возразить; да и где ему было ответить на такие убедительные слова* [154]. – Men senga biror ahmoqlik qildimmiki, sen ko'ksing va belingga ikkitadan qilich osib, yerimizga bostirib kelibsan, yana bu yerda nizo chiqarib, isyon ko'tarasan? Bu qari dovdiragan chol g'o'ldirab, **bir nimalar deb ming'irladi,** lekin javob berishi kerak bo'lgan bunday qat'iy savolga hech qanday qarshi so'z aytolmadi.

Tarjimada **so'z og'zida puypamoq - пробормотал несколько слов, - bir nimalar deb ming'irladi** – tarjimadagi "meaning to meaning translation" usuli, ya'ni mazmun yoki matn g'oyasini o'girish orqali so'z birikmasida o'z ifodasini topgan.

Jahon tillariga, xususan ingliz tiliga bir necha marotaba tarjima qilingan "Boburnoma" tarjimalar tarixini boshidan kechirdi, ularning orasida inglizcha adekvat tarjimalari mavjud. Ular asarning Jon Leyden va Vilyam Erskin (1826), Annetta Susanna Beverij (1921) va Vilyer Tekston (1996) tarjimalaridir. O'zbek olimlarining "Boburnoma"ni inglizcha tarjimalarini qiyosiy tahlil etishda va badiiy xususiyatlarini o'rganishda ushbu tarjimalardan samarali foydalanganlar. Chunki ularning tarjimasi adekvat deb qabul qilingan. Biz ham ushbu uch tarjimaga asoslanib ish ko'ramiz.

Asliyatdagi, *Sening haqqingda yomon bordimmukim, to'shung bila belingga ikki qilich bog'lab, cherik tortib, bizning viloyatlarning ustiga kelib mundoq sho'r va fitna solursen Qari mabhut mardak bir-ikki* ***so'z og'zida-o'q puypadi*** *so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi* degan parchani inglizcha Jon Leyden va Vilyam Erskin (1826) tarjimasida kuzatamiz.

Jon Leyden va Vilyam Erskin tarjimasi: What evil have I ever done you, that you should come in this style against me, with these two swords by your side: and, attended by an army, stir up tumult and confusion in my territories?" The, man being stupefied, **stammered out a few words**, not at all to the purpose; and, indeed, what could he say in answer to such confounding truths? [298]. – Men senga qanday yomonlik qildimki, sen bu alfozda menga qarshi kiyinib, mana bu ikki qilichni taqib olib, butun lashkaringni boshlab kelib, hududda to'polon ko'tarasan? Erkak kalovlanib, to'liq javob bermasdan **bir ikki og'iz g'uldiradi**, haqiqatdan ham favqulodda berilgan bunday savolga nima deb ham javob bera olardi?

Misol tarjimasi Anetta Susanna Beverijda (1921): What ill sayest I have done thee, that thus thou shouldst hang a sword on thy either side, lead an army out, fall on lands of ours, and stir strife and trouble?". Dumbfounded, the old man **shattered a few words**, but he gave no answer, nor indeed could answer be given to words so silencing [3, 526 (460)]. – Men qanday bema'ni ish qildimki, yelkang va belingga ham qurol osib, bizning yerlarga lashkaring bilan kelib, g'avg'o va tashvishlarni qo'zg'aysan? Esankiragan, qari chol **tishlarini g'ijirlatib bir ikki og'iz g'uldiradi**, lekin berilgan savolga na to'g'ri javob berdi, na indamay turdi.

Asliyatdagi misol Vilyer Tekston tarjimasi (1996)да: *Did I do you ill that you strapped two swords to your waist and led your army against our domains and caused such strife and turmoil?" The confused old man* ***mumbled a word or two*** *in the back of his throat but said nothing in response. What could he say to such unanswerable words?* [317]. – Men senga qanday noma'qul ish qildimki, sen belingga ikki qilichni mahkam bog'lab kelib, lashkaring bilan bizning hududda qarshi chiqib, g'avg'o va to'polon ko'tarasan? Xijolat chekkan chol **bir ikki so'z aytib to'ng'illadi**, lekin javob bera olmadi. Javob berolmaydigan shunday savolga nima ham deya olardi.

Tarjimalardan ko'rinadiki, asliyatdagi **so'z og'zida-o'q puypamoq**

frazeologik birlikning ma'nosini aks ettirish orqali o'girilgan. Jon Leyden va Vilyam Erskin tarjimasida **stammered out a few words - bir ikki og'iz g'uldiradi;** Anetta Susanna Beverijda **shattered a few words - tishlarini g'ijirlatib bir ikki og'iz g'uldiradi**; Viyer Tekston tarjimasida **mumbled a word or two** - bir ikki so'z aytib to'ng'illadi, duduqlandi tarzida tarjima qilingan. Shuni qayd etish lozimki, asliyatdagi frazeologik birlik albatta frazeologik birlik bo'lib o'girilmasligi tabiiy hol. Asliyat tarjima jarayonida ba'zi yo'qotishlari evaziga matnning boshqa jihatlari to'ldirilib, qayta tiklanadi. Shunga qaramay siyosiy va tarixiy voqealar, tarixda bitilgan mashhur janglarda, tarixiy shaxslar portretini nozik chizgilarda sodir etish va o'sha jarayonda qo'llangan frazeologik birliklar ma'nosini aks ettirish juda muhimdir.

Quyidagi frazeologik birliklar klasteriga e'tibor qaratamiz.



Muallif temuriyzoda beklar o'rtasidagi nifoqlarni tasvirlar ekan, Husayn Boyqaroning o'g'li Badi'uzzamon mirzo va otasini navkarlarining unga qilgan muomalasini, beklar haqidagi nizolarni achchiq kinoya bilan frazeologik birlik orqali tasvirlagan. Shulardan biri Badi'uzzamon mirzo haqida:

Xisravshohni navkar-savdaridin ayirib mundoq zabun qilmasam edi, Kobulni Zunnunning o'g'li Muqimdin olmasam edi, borib mirzoni ko'rmaklari mumkin emas edi. Badi'uzzamon mirzo xud bularning ***ilgida xamir edi,*** *bularning so'zlaridin tajovuz qila olmas edi* [123].

Tabdil: Xisravshohni navkar-savdaridan ayirib bunday bechorahol qilmasam, Kobulni Zunnunning o'g'li Muqimdan olmasam edi, ularning borib mirzoni ko'rmaklari mumkin bo'lmasdi. Badi'uzzamon mirzo ham bularning qo'lida xamir edi [122].

Ilgida xamir bo'lish, hukmdor bo'la turib, beklarning ilgida xamir kabi evrilishi, ularning izmiga bo'ysunishi "Boburnoma" muallifini hayratga soladi. U podshohning o'g'li bo'lsa-da o'zgalar fikri bilan ish ko'rishini o'tkir kinoya ilgida xamir edi orqali aks ettiradi. Ushbu frazeologik birlik uch turdagi inglizcha tarjimada quyidagicha beriladi:

Yuqoridagi asliyat misoli Jon Leyden va Vilyam Erskin tarjimasida: For had I not deprived Khosrou Shah of his army and retainers, and reduced him to his present helpless condition, and had not I taken Kabul from Mokim, Zulnun's son, they never would have thought of going to wait upon the Mirza. Badia-ez-zaman **was only dough in the hands of the other** two, and never attempted to swerve from their advice [9, 168]. – Xisravshohning navkar va xizmatkorlarini tortib olmasam va uni hozirgi holatga solmasam edi, Zunnunning o'g'li Muqimdan Kobulni olib qo'ymasam edi, ular hech qachon bu Mirzoga xizmat qilish uchun bormasdi. Badi'uzzamon mirzo esa faqat bir – ikki **kimsalar qo'lida xamir edi** va hech qachon ularning maslahatidan bosh tortolmasdi.

Asliyat misoli Anneta Susanna Beverijda: For it is not likely they would have seen if I had not made Khusrau Shah helpless by parting him his following, and if I had not taken Kabul from Zunnun's, Muqim. Badi'uz-zaman Mirza himself was as dough in the hands of the rest; beyond their word he could not go [243]. – Agar men Xisravshohni nochor holatga solib, bulardan ayirmaganimda va Zunnun bilan Muqimdan Kobulni tortib olmaganimda, ular bunday alfozda ko'rinmagan bo'lardi.

Badi'uzzamon mirzo bo'lsa qolganlar qo'lida xamir edi, ularning so'zidan o'tib ish qilolmasdi.

Asliyat misoli Vilyer Tekston tarjimasida: Had I not reduced Khusrawshah to such a state by separating him from his servants and liege men, and had I not taken Kabul from Zu'n-nun Beg's son Muqim, it would not have been possible for them to go to the mirza. Badi'uzzaman Mirza, **putty in their hands,** was incapable of protesting against anything they said [182]. – Men Xisravshohni shunday davlatidan va xizmatkoriyu, lashkarlaridan ayirib kuchsizlantirmaganimda, Zunnunbekning o'g'li Muqimdan Kobulni olmaganimda edi, ular balki, mirzoga bormagan bo'larmidilar. Badi'uzzamon mirzo **ularning qo'lida xamir** (putty-teshik, yoriqlarni bekitish uchun ishlatadigan yopishqoq qorishma)[1] **edi**, ular aytgan fikrga qarshi chiqolmasdi.

Tadqiqotdan ko'rinadiki, frazeologik birlik ilgida xamir bo'lmoq uch turdagi inglizcha Jon Leyden va Vilyam Erskin (1826), Anneta Susanna Beverij (1921) va Vilyer Tekston (1996)da tarjimaning kalka usuli– so'zma so'z tarjimadan foydalangan. Sababi oziq ovqat tarkibiga kirgan va barcha millatga tanish jarayon – ilgida xamir va xamirni har qanday shaklga solinishi, inson qiyofasining sifatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan ushbu ilgida xamir bo'lmoq asarning ruscha tarjimasiga ham o'tgan. Quyidagi misolda rus tilidagi versiyasini ham o'rganamiz:

Xisravshohni navkar-savdaridin ayirib mundoq zabun qilmasam edi, Kobulni Zunnunning o'g'li Muqimdin olmasam edi, borib mirzoni ko'rmaklari mumkin emas edi. Badi'uzzamon mirzo xud bularning ***ilgida xamir edi****, bularning so'zlaridin tajovuz qila olmas edi* – Если бы я не сделал Хусравшаха столь слабым, разлучив его со слугами и нукерами, если бы я не отнял Кабула у Мукима, сына Зуннуна, то их уход и свидание с Мирзой оказались бы невозможны. Ведь Бади'аззаман мирза **был у них в руках**, [словно] **тесто**, и не мог отступить от их слов [94]. – Agar men Xisravshohni o'zining navkari va xizmatkorlaridan ajratib, ojiz qilmaganimda, agar men Zunnunning o'g'li Muqimdan Kobulni tortib olmaganimda edi, ular Mirzo bilan uchrashishga ketib qololmagan bo'lardi. Axir Badi'uzzamon mirzo ularning **qo'lida xamir** [so'zma-so'z] **edi** va ularning so'zidan voz kecha olmasdi.

---

1 Бўтаев Ш, Ирисқулов А. Инглизча-ўзбекча, Ўзбекча-инглизча луғат. Тошкент–"Фан" нашриёти, 2009.

Tarixiy fakt, yana allaqanday sirli ravishda Farg'ona viloyatining hukmdori Umarshayx mirzoning qanday o'lim topgani o'quvchining diqqat e'tiborini tortadi. Muallif o'zining otasi haqida shunday yozadi:

Ushbu tarixda dushanba kuni, ramazon oyining to'rtida Umar Shayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub, ***shunqor bo'ldi****. O'ttiz to'qquz yoshar edi* [37].

Mazkur jumladagi ajratib yozilgan ***shunqor bo'ldi*** frazeologik birligi matn ichida Leyden–Erskinda quyidagicha tarjima qilinadi:

On Monday, the 4th of the month of Ramzan, of the year that has been mentioned, Omer-Sheikh Mirza was ***precipitated from the top of the steep****, with his pigeons, and pigeon-house, and* ***took his flight to the other world.*** *He was then in the thirty-ninth year of his age* [7]. *– Aytib o'tilgan o'sha yilning ramazon oyining to'rtinchi sanasida, dushanba kuni Umarshayx Mirzo kabutar va kabutar uyi bilan baland jardan pastga qulab tushdi va* ***narigi dunyoga uchib ketdi.*** *U 39 yoshda edi (narigi dunyoga ravona bo'ldi).*

Asliyat matni S.Beverij tarjimasida quyidagicha berilgan: *Meantime a strange event occurred. It has been mentioned that the fort of Akhsi is situated above a deep ravine along this ravine stand the palace buildings, and from it, on Monday, Ramzan 4, (June 8th.) 'Umar Shaikh Mirza* ***flew****, with his pigeons and their house, and* ***became a falcon*** [68]. *– Aytib o'tilgan o'sha yili, o'sha paytda g'alati voqea sodir bo'ldi. Axsi qarorgohi baland jar yoqasida joylashgan bo'lib, jarlik bo'ylab qasr, qurdirilgan binolar bor va shu binodan ramazonning to'rtinchi kuni (8 iyun) Umarshayx Mirzo* ***uchub****, o'zining kabutar va kabutar uyi bilan* ***lochin bo'lib ketdi.***

Asliyat matni V.Tekston tarjimasida bunday: *On Monday, the fourth of Ramadan of this year (June 8, 1494), Umar-Shaykh Mirza* ***toppled into the ravine****, with his doves and dovecote and* ***gave up the ghost****. He was thirty nine years old* [8]. *– Dushanba kuni, yilning ramazon oyi (1494 yil 8 iyun), Umarshayx Mirzo tepadan o'zining kabutar va kabutar xonasi bilan* ***jarga qulab tushdi va jon taslim qildi.***

Asarni ingliz tiliga o'girishda tarjimonlar asliyatga turlicha yondashib, imkon doirasida ***shunqor bo'ldi***ning muqobilini aks ettirgan. Asliyatdagi frazeologik birlik mazmuni uch turdagi inlizcha tarjimalarning hech qaysi birida yo'qolmagan, balki o'ziga xos tarzda aks etgan. "Boburnoma"dagi ***shunqor bo'ldi*** frazeologik birligi Leyden–Erskinda uchub – *precipitated*

from the top of the steep – jarning tepasidan juda yuqori tezlikda tushib, shunqor bo'ldi – took his flight to the other world – narigi dunyoga uchub ketdi ikki turdagi frazeologik birlik orqali tarjima qilib, adekvat tarjimaga erishgan.

S.Beverijning varianti so'zma-so'z tarjima uchub – **flew, shunqor bo'ldi – became a falcon – lochin bo'lib, uchib ketdi** tarzida berilgan. V.Tekston frazeologik birlikning transformatsion uslubi orqali uchub – **toppled into the ravine – jarga qulab tushdi**, shunqor bo'ldi – **gave up the ghost – jon taslim qildi** tarzida muqobil tarjimaga erishgan. Tarjimadagi semantik aloqalar muallif nazarda tutgan hodisalarni ifodalashda tasviriy va obrazli chiqishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Millatning o'ziga xosligi uning milliy-madaniy qadriyatlari, turmush tarzi, dini va e'tiqodi, ma'naviy axloqi, urf-odatlaridadir. Hazil-mutoiba gaplar, maqtashu olqishlar kabi frazeologik birliklar ham milliylikka xos tarzda ifodalanadi. "Boburnoma"da qo'llangan frazeologik birliklar boshqa asarlarda qo'llangan frazeologik birliklardan keskin farq qiladi. Asarda voqea va hodisalarning tasvirlanishi, jang maydonidagi holatlar ham obrazli ifoda topgan.

Mumtoz adabiyotlarda qo'llangan frazeologik birliklar tarjimasi o'ta murakkab jarayon ayni paytda ularni o'rganish dolzarb. "Boburnoma" asarining dunyo tillariga qayta-qayta tarjima qilinayotganligini hisobga olib, unda qo'llangan frazeologik birliklardan mavzuli lug'at yaratish lozim. "Boburnoma"dagi frazeologik birliklarning kognitiv-kontseptual lug'atini yaratish tarjima qilinmagan boshqa o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining dunyo yuzini ko'rishda, millatni dunyoga tanitishda muhim rol o'ynaydi.

"Boburnoma" va uning inglizcha tarjimalarini qiyosiy va kognitiv-kontseptual tahlil etish tarjimonni ma'no va mazmun izchilligini his etish malakasini ta'minlaydi, murakkab frazeologik birliklar tarjimasini tadqiq etish tarjimonning milliy-madaniy xususiyatli leksik va frazeologik iboralarni hech qiynalmay tarjima qilishiga zamin yaratadi. O'quvchi va tarjimonni asliyat mazmunini yanada chuqurroq anglashga undaydi. Asarni jiddiy o'rganish yangi g'oyalar yaratilishiga olib keladi. Asliyat kiril alifbosida bo'lganligini hisobga olib, uni kiril qoldirilishini lozim topdik. Mana shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, **"Boburnoma"dagi frazeologik birliklarning o'zbekcha-ruscha-inglizcha sizning hukmingizda lug'atini** havola etamiz.

Lug'at haqidagi fikr va mulohazalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Ma'lumot uchun telefon: (90) 345 97 46.

Elektron manzil: zteshaboeva@mail.ru; tziyodahon@yahoo.com

ShARTLI BELGILAR

A: = Asliyat, "Boburnoma"ning 2002 yil nashri.

T: = Tabdil, "Boburnoma"ning 2008 yil nashri.

R.T: = Ruscha tarjima, "Boburnoma"ning 2008 yil ruscha nashri.

1. = J.**Leyden-V.Erskin**nig 1826 yildagi "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasi.

2. = Anneta Susanna Beverijning 1921 yildagi "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasi.

3. = V.Tekstonning 1996 yildagi "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasi.

Б

БУЗМОҚ

ЯСОЛНИ **БУЗМОҚ** — сафни, жанговор тартибни бузмоқ	
А:... *беклар арзға еткурдиларким, бу киши худ жазм туюбтур.* ***Ясолни бузмай*** *ёруқта-ўқ етиб борсак муносибдур* [94].	**1**..... that therefore it was better not **to advance in disorder**, but **slowly** and in regular array [113].
Т:... беклар хабар етказдиларки, у Шаҳбоз ҳамма нарсани аниқ сезган. **Жанговар сафни бузмай** ёруғдаёқ етиб борсак дуруст бўлади [93].	**2....** the begs represented to me that as the man would have had news *if* us, **it was advisable not to go on in broken array** [110].
Р. Т:... беки доложили: «Этот человек наверное обо всем догадался. Если мы подойдем, **не расстраивая рядов**, при свете дня — будет подходяще» [69].	**3.** «This person has learned of our plan. It would be appropriate for us to get closer in **without breaking formation**» [127].
ҚУШ **БУЗМОҒ** — қуш гўштини биринчи бўлиб тўғрамоқ ва бошқаларга бермоқ	
А: *Бу суҳбатта менинг олимға қоз кабоби қўйдилар, чун* ***қуш бузмоғини*** *ва тўрғамоғини қилғон эмас эрдим, илик элтмадим* [145].	**1.** In the course of the party, a roast goose was put down before me. As I was ignorant of the mode of **cutting it** up, or **carving it**, I let it alone, and did not touch it [206].
Т: Ушбу зиёфатда олдимга ғоз кабоби қўйдилар. Шу пайтгача мен сира **қуш бузмаган** ва тўғрамаган эдим, шу сабабли қўл теккизмадим [146].	**2.** At this party they set a roast goose before me but as **I was no carver** or **disjointer** of birds, I left it alone [304].

Р. Т: На этой пирушке передо мной поставили жареного гуся. Так как я еще никогда **не разрезал и не разнимал птиц**, то не дотронулся до гуся [113].	**3.** At this gathering they placed a roast goose before me. Since I had never **carved** or **disjointed a fowl**, I did not touch it [229].
ВАФОТ ҚИЛМОҚ — дунёдан ўтмоқ, ўлмоқ	
А: *Менинг отамнинг онаси ҳам Андижонда **вафот қилғон** экандур, ани ҳам мунда эшиттурдилар* [86].	**1.** My father's mother had also **paid the debt of mortality** at Andejan, and the news was communicated here [99].
Т: Отамнинг онаси ҳам Андижонда **вафот қилган** экан, уни ҳам шу ерда эшитдим [85].	**2.** My father's mother also must have **died** in Andijan; this too they let us know in Aura-tipa[149].
Р. Т: Мать моего отца тоже скончалась в Андижане, об этом нам рассказали там же [62].	**3.** My father's mother had also **passed away** at Andizhan [112].
Д **ДУНЁ**	
ДУНЁЙИ ФОНИЙНИ ВИДОЪ ҚИЛМОҚ — вафот этмоқ	
А: *Шоҳбегим ва Меҳр Нигорхоним ва жамиъ элнинг аҳли ва аёли асирлиққа тушуб, ул золими бадкирдорнинг ҳабсида **дунёйи фонийни видоъ қилдилар*** [39].	**1.** ... Shah Begum and Mihr Nigar Nigar Khanum, with their whole family and attendents, were taken prisoners; and, in the prisons of that wicked miscreant, they **departed from this perishable world** [12].

Т: Шоҳбегим ва Меҳр Нигорхоним ҳамда жами элнинг аҳли ва аёли асирликка тушиб, у золим бадкирдор қамоғида **ҳаётдан кўз юмдилар** [34].	**2.** When Mubarak Shah invited Khan Mirza into Fort Victory, they were captured, together with the wives and families of all their people, by marauders of Aba-bikr *Kashghari* and, as captives to that ill-doing miscreant, **bade farewell to this transitory world** [77].
Р. Т: Шахбиким, Михр Нигар ханум и все женщины и семья [сопровождавших их] людей попали в плен и **простились с бренным миром** в заточении у этого преступного злодея [16].	**3**. Shah Begum and Mihr Nigar Nigar Khanum, along with all the folk of their people, fell into captivity, whereupon they **bade farewell to this mortal world** in that evil tyrant's prison [14].
БЕШ КУН ЎТАР **ДУНЁ —** ўткинчи ва қисқа умр	
А: ***Беш кун ўтар дунё*** *учун бир ўзи ўстурғон валинеъматзодасини кўр қилди. Яна бирини ўлтурди. Тенгри қошида осий ва халқ олдида мардуд бўлубдур* [49].	**1. For the sake of the short and fleeting pomp of this vain world**, he put out the eyes of one, and murdered another of the sons of the benefactor, in whose service he had been, and by whom he had been patronized and protected; rendering himself accused of God, abhorred of men, and worthy of execration and shame till the day final retribution [31].
Т: Беш кунлик ўтар дунё учун бир ўзи ўстирган валинеъматзодасини Султон Маҳмуд мирзо ўғлининг кўзини кўр қилди. Бошқа бирини ўлдирди. Тангри қошида осий ва халқ олдида ёмонотлиқ бўлди [45].	**2. For the sake of this fleeting, five-days, world,** he blinded one of his benefactor's sons and murdered another. A sinner before God, reprobate to His creatures, he has earned curse and execration till the very verge of Resurrection [50].

Р. Т: Ради [благ] **быстротечной, преходящей земной жизни** он ослепил одного из сыновей своего благодетеля, который его вырастил, и убил другого. Перед богом он был ослушником, а для людей — ненавистным, достойным того, чтобы его проклинали и поносили до самого дня воскресения мертвых [26].	**3. For the sake of this transitory world** he had blinded one of his benefactor's sons whom he had looked after himself, and killed another. He was sinful in the sight of God and damnable in the sight of men [34].
БЕШ КУНЛУК ЎТАР **ДУНЁ** — ўткинчи ва қисқа умр	
А: *Шайбоқхон Ҳирини олғондин сўнг, бу подшоҳларнинг зоҳ ва зоди била ёмон маош қилди, не ёлғуз бу жамъ била, бори халойиқ била Рустойи ва нодида киши,* ***беш кунлук ўтар дунё*** *учун мундоқ ёмон от қозғонди. Шайбоқхондин ношоиста ҳаракот ва афъолеким, Ҳирида содир бўлди, аввал буким,* ***чирик дунё учун*** *Хадичабегимни Шоҳ Мансур бахши... га тутуруб, турлук-турлук қийинлар қилдурди* [154, 155].	**1.** Shaibaq Khan, after taking Heri, behaved badly not only to the wives and children of its rulers but to every person soever. **For the sake of this five-days fleeting world,** he earned himself a bad name. His first improper act and deed in Heri was that **for the sake of rotten world** (chirk dunya), he caused Khadija Begim various miseries, through letting the vile wretch Pay-master Shah Mansur get hold of her to loot [328].

Т: Шайбоқхон Ҳиротни олгандан сўнг, бу подшоҳларнинг авлод-аждоди билан, нафақат бу жамоа, балки бутун халойиқ билан ёмон қилди. Қишлоқи ва олам кўрмаган бу одам беш **кунлик ўтар дунё учун** бундай ёмон от қозонди. Шайбоқхондан хунук хатта-ҳаракат ва япамас қилиқлар Ҳиротда содир бўлди: аввало, **чирик дунё учун** Хадича бегимни Шоҳ Мансур бахши... га топшириб, турли азобларга солди [156].	**2**. After taking of Heri, Sheibak Khan behaved extremely ill to the children and wives of the kings; nor to them alone, he conducted himself towards everybody in a rude, unseemly, and unworthy manner, forfeiting his good name and glory for a little wretched earthly pelf. The first Sheibak Khan's misdeeds in Heri was, that **for the sake of some worldly dirt**, he order Khadjeh Begum to be given up to Shah Mansur Bakshi [223].
Р. Т: После того как Шейбанихан взял Герат, он очень дурно обошелся с женами и детьми [обоих] государей, не только с ними, но со всем народом. Ради **преходящих** благ нашей **краткой жизни** он учинил всевозможные грубости и непристойности. Первое дело и действие, которое Шейбанихан совершил в Герате, таково: радигрязных мирских расчетов он отдал Хадичабиким развратнику Шах Мансур Бахши на пытку и истязание [30].	**3.** When Wormwood Khan took Herat, he maltreated the princes' wives and children. Not only with them but also with all the people, even rustics and insignificant little people, he left behind a bad name for his love of this **fleeting world.** First among his improper deeds in Herat was that **for the sake of this filthy world** he turned over Khadija Begim to Shah Mansur Bakhshi's wife for safe keeping and let her be tormented in all sorts ways [249].
ДУНЁ*ЙИ БЕБАҚО* — фоний дунё	

A: *Хисравшоҳ бу ўтар* ***дунёйи бебақо*** *учун ва бу кетар навкари бевафо учун мунча ёмонлиқ ва бадномлиқни ихтиёр қилиб ва мунча зулм ва бедод қилмоқни ўзига шиор қилиб, мунча улуғ вилоятлар олиб, мунча қалин навкар ва савдар сахламоқ тарҳин солиб, балки сўнгралар навкар ва чокари йигирма-ўттуз мингга тортиб вилоёт ва парганоти ўз подшоҳи ва мирзоларидин ортиб, умрида қилғон иши ушбу бўлди* [53].	**1**. And this Khosrou Shah, who for the sake of **this fleeting, unstable world**, and for the vanity of being attended by a set of faithless servants, did so many bad actions, earned such a portion of infamy, and was guilty of so much tyranny and injustice; who seized so many extensive countries, and entertained so many extensive countries ... [38].
T: Хисравшоҳ бу ўтар **бебақо дунё** учун ва кетар навкари бевафо учун шунча ёмонлик ва бадномликни ихтиёр қилиб ҳамда мунча зулм ва адолатсизлик қилмоқни ўзига шиор қилиб, катта-катта вилоятларга эга бўлиб, шунча кўп навкар ва савдар сахлаш тутумини қилиб, балки сўнгралар навкар ва мулозимлари йигирма-ўттуз мингга етиб, вилоётларни ва ноҳиялари ўз подшоҳи ва мирзоларидан ортиб, умрида эришган ғалабаси шу бўлди [49].	**2.** This was the one exploit of his life, of this man who for the sake of **this fleeting and unstable world** and for the sake of shifting and faithless followers, chose such evil and such illrepute, practised such tyranny and injustice, seized such wide lands, kept such hosts of retainers and followers, latterly he led and his districts [60].

Р. Т: Хусравшах, который ради сей **бренной, скоротечной земной жизни** и ради своих неверных, непостоянных нукеров избрал для себя такой позор и бесславие и сделал своим обычаем жестокость и несправедливость, который захватил столь обширные земли и содержал столько нукеров и слуг, — ведь под конец жизни Хусравшаха число его нукеров и приспешников достигло двадцати-тридцати тысяч человек, а владения и уделы его были больше владений самого государя и царевичей — за всю свою жизнь совершил одно только это боевое дело [30].	**3.** For the sake of t**his ephemeral world** and of faithless followers ready to flee at a moment's notice, Khusrawshah elected this evil and ill repute A man who made his watchwords tyranny and injustice, and who seized so many lands and maintained so many liege men and retainers that toward the end of his time his servants numbered upward of twenty to thirty thousand, whoses realm dwarfed that of his own padishah and mirzas-in hids entire lifetime this was his one engagement! [42].
ЎТАР **ДУНЁ** — қисқа умр	
